

GLOBALLASHUV VA ADABIY JARAYONNING MUNOSABATI XUSUSIDA

Zebo Zokirovna SABIROVA

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Toshkent, O'zbekiston

О СВЯЗИ ГЛОБАЛИЗАЦИИ И ЛИТЕРАТУРНОГО ПРОЦЕССА

Зебо Зокировна САБИРОВА

Доктор философских наук по филологии (PhD), старший преподаватель
Узбекский государственный университет мировых языков
Ташкент, Узбекистан

ON THE RELATIONSHIP BETWEEN GLOBALIZATION AND THE LITERARY PROCESS

Zebo Zokirovna SABIROVA

Doctor of Philosophy in Philology (PhD), Senior Teacher
Uzbekistan State World Languages University
Tashkent, Uzbekistan, zebonur2017@gmail.com

UDC (УО'К, УДК): 82-1/29: 821.512.133

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

Sabirova Z.Z. Goballashuv va adabiy jarayonning munosabati xususida// O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2023. — № 5 (52). — B. 230-241.

<https://doi.org/10.36078/1697696884>

Received: September 05, 2023

Accepted: October 03, 2023

Published: October 05, 2023

Copyright © 2022 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



Annotatsiya. Maqolada "globallashuv" hodisasining paydo bo'lishi, uning shakllanishiga zamin hozirlagan tarixiy, ijtimoiy-siyosiy, madaniy va adabiy jarayon munosabatlari tahlilga tortiladi. Kompyuter texnologiyalarining rivojlanishi dunyo hamjamiyatining kundalik turmush tarzini qamrab borar ekan insonning har qanday ehtiyojiga: moddiy, ma'naviy, ruhiy — hammasiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Ayni mana shu inson bugun ijodkor tomondan yaratilayotgan badiiy asarning bosh qahramonidir. Bugungi kun insoninining xulq-atvori, xatti-harakatlarini ifodalayotgan milliy adabiyotlarning buguni va kelajagi, yashab qolish jihatlari haqida fikr yuritiladi. Tadqiqotning maqsadi globallashuv davri o'zbek she'riyatining asosiy xususiyatlari va adabiy jarayon aloqasi, davr she'riyatining asosiy xususiyatlari va tamoyillari, internet adabiyoti va she'riyat, an'ana va yangilikka ijodiy munosabat, ijodkor uslubi va individualligi, shakl va mazmunda kuzatilayotgan o'zgarishlarni tadqiq etishdan iborat.

Kalit so'zlar: globallashuv jarayoni; milliy adabiyot; badiiy adabiyot; ruhiyat tahlili; adabiy jarayon; tafakkur va tasavvur; adabiyotni globallashtirish; milliy adabiyotlar taqdiri.

Аннотация. В статье анализируется возникновение феномена «глобализация», исторические, общественно-политические, культурные и литературные процессы, подготовившие почву для его формирования. Поскольку развитие компьютерных технологий охватывает повседневную жизнь мирового сообщества, оно затрагивает все потребности человека: материальные, духовные. Этот человек является главным героем художественного произведения, созданного художником сегодня. Обсуждаются настоящее и будущее национальных литератур, выражающих поведение и поступки современных

людей. Цель исследования — выявить особенности узбекской поэзии в эпоху глобализации и взаимосвязь между литературным процессом, а также определить основные характеристики и принципы поэзии этого периода. В статье рассматриваются интернет-литература и поэзия, творческое отношение к традиции и новаторству, стиль и индивидуальность творца, наблюдаемые в форме и содержании.

Ключевые слова: процесс глобализации; национальная литература; художественная литература; психологический анализ; литературный процесс; мышление и воображение; глобализация литературы; судьба национальной литературы.

Abstract. The article analyzes the emergence of the "globalization" phenomenon and the historical, socio-political, cultural, and literary processes that paved the way for its formation. As the development of computer technologies covers the daily life of the world community, it affects the material and spiritual needs of a human being, which is the main character of the artistic work. The study discusses the present and future of national literature, which express the behavior and actions of modern people. The purpose of the research is the main characteristics of Uzbek poetry in the era of globalization and the relationship between the literary process, the main characteristics and principles of the poetry of the period, internet literature and poetry, creative attitude to tradition and innovation, the style and individuality of the creator, observed in form and content.

Keywords: globalization process; national literature; fiction; psychological analysis; literary process; thinking and imagination; globalization of literature; fate of national literature.

Kirish. Dunyo tafakkurining keyingi yuz yilligida globallashuv jarayoni ta'sirida badiiy adabiyotni davr talablari darajasida tahlil va talqin qilish, uning maqsad va vazifalarini anglash zarurati vujudga keldi. Globallashuv madaniy, siyosiy, iqtisodiy, adabiy sohalarning bir-biriga dunyo miqyosida ta'sir ko'rsatishini ta'minlaydi. O'zaro integratsiyalashuv natijasida o'zbek shoirlari jahon she'riyati yutuqlaridan samarali foydalanib, milliy-madaniy mavzularni umumbashariy tafakkurga yaqinlashtirmoqda. Badiiy adabiyot har qanday mamlakatda gumanizm va ma'naviyatning asosiy tayanchlaridan sanaladi. Uni ezgulik manbai, millatni asrash vositasi deya e'tirof etish mumkin. Adabiyot rivojlanishining asosiy xususiyati sifatida inson ruhiyatining falsafiy-ruhiy tahlili orqali shaxsni kamolga yetkazish, komillikni ulug'lash nazarda tutiladi va globallashuv davrida milliylik mezonlarini asrash ustuvor tamoyilga aylandi.

Adabiyot odam va olamning eng yaxshi fazilatlarini o'zida jam etgani holda insoniyatni ezgulik sari boshlaydi. Insoniyat voqelikka haddan ziyod chuqur kirib borib, muvozanatdan chiqib ketmasligi uchun ham adabiyot zarur sanaladi. Bugungi dunyoda adabiyotsiz ideallardan mosuvo, jonsiz, temirtan mashinalar olamiga qul bo'lib qolish, insonni inson qiluvchi, odamiylik javhari bo'lgan fazilatlardan ayro tushish xavfi mavjud. Tafakkur va tasavvur hosilasi bo'lgan adabiyot qadimiy g'orlardan to bugunga qadar turfa qiyofalar kasb etgan binolargacha, ibtidoiy tuzumdan globallashuv davri, ya'ni bugunga qadar insoniyatga to'g'ri va ma'qul yo'l ko'rsatdi.

Asosiy qism. Butun dunyo bo'ylab globallashuv jarayoni kechayotgan pallada bugungi o'zbek xalqining o'z milliy qadriyatlarini, o'zligini saqlagan holda jahon hamjamiyatiga qo'shilishi ulkan muvaffaqiyatdir. Bunda adabiyot asosiy konseptual omil hisoblanadi. Zamonaviy adabiyotda falsafiylik, ruhiy tahlilga e'tiborning ortganligi, lirik e'tirof mohiyatining ahamiyati, kuchli pafosning ifodasi, ijodkor "men"ning inkor va iqrorning ta'sirchanligi ustuvorlik qilib, bugungi kun adabiyotida poetik ifodaning xilma-xilligi o'zini betakror tarzda namoyon etayotganiga guvohmiz. Bular esa, birinchi galda, badiiy so'zning ma'no qirralarini, turli millat badiiyat olamida poetik unsurlarining qanchalik teranligini va kengligini namoyish qiladi.

Ma'naviyat va moddiyat — bir-birini taqozo qiladigan hamda biri ikkinchisi uchun zaruratga aylangan hodisa. Insoniyat — XXI asrning ilk choragida yer sharining istalgan nuqtasidan turib, dunyoning istalgan qismida kechayotgan jarayonlardan, yangiliklardan, turli voqealardan soniyalar ichida boxabar bo'lishi mumkin. Texnokratlashgan dunyoda kompyuter, telefon, internet tarmoqlarini kashf qilgan insonning hayot tarzi ularga chambarchas bog'liq bo'lib bormoqda. O'tmishga nazar solinsa, globallashuv belgilari qadim zamonlardan shakllana boshlagan. Bunga mamlakatlararo, mintaqalararo ijtimoiy, iqtisodiy hamkorlikning yo'lga qo'yilishi, qimmatbaho buyumlar oldi-sotdisi (moddiy), badiiy asarlar va boshqa san'at turlarining namunalari bilan almashish (ma'naviy) maqsadida insoniyat tomonidan amalga oshirilgan sayohatlar ham taalluqlidir. Misol tariqasida Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyoning bir qismini Yevropa va Afrikaning turli mintaqalari bilan bog'lagan Buyuk Ipak yo'li savdo tarmog'i bo'lsa, Chingiziyalar imperiyasi davrida yo'lga qo'yilgan pochta xizmatini ham aytish mumkin. Bundan tashqari, Ispaniya xalqining Amerika hududiga kelishi yana bir muhim voqea bo'ldi. Yevropaliklarning dengiz yo'li orqali turli mahsulotlar va ipak izlash maqsadida boshqa mintaqalarga yo'l olishi Yangi Dunyo mintaqalarining o'rganilishiga olib keldi hamda tovar almashinuvining yangicha yo'llarini vujudga keltirdi. Bular tarixning har bir muayyan davrida tadrijiy taraqqiyot uchun turtki bo'lgan muhim aloqalarni anglatar edi.

Savdo aloqalari, migratsiyaning ortishi, tovarlarni tashish, qishloq xo'jaligi tarmoqlarining ko'payishi va ushbu bosqichdan keyin paydo bo'lgan ko'plab texnologik ixtirolar dunyo miqyosida insoniyat turmush tarzini keskin o'zgartirdi. XX asrda axborot davrining tezlashishi bilan sun'iy yo'ldoshlar, internet va butunjahon interneti kabi aloqa sohalarida katta yutuqlar dunyo iqtisodiy tizimida tub o'zgarishlar yasadi. Masofaviy axborot xizmati iqtisodiyotning yadrosi sifatida xalqlar, mamlakatlar va qit'alar o'rtasidagi aloqaning yangi shakliga aylandi.

XVI asrda yashagan ingliz faylasufi F.Bekoning yozishicha, porox, bosmaxona va kompasning ixtiro qilinishi jahon sivilizatsiyasida katta inqilob yasadiki, endi osmondagi birorta yulduz, yer yuzining hech bir nuqtasi sodir bo'layotgan voqealardan, o'zgarishlardan chetda qolmaydi, qololmaydi. Bu fikrlarning falsafiy

to'g'riligini XXI asrning eng yirik global jarayoni bo'lmish globallashuv bilan ham bog'lash mumkin. Bu umumbashariy jarayon insoniyat tarixi asrlar boshida turgan paytda butun dunyoni qamrab oldi va nafaqat yangi asrga, balki yangi ming yillikka ham o'tishni amalga oshirdi.

Angliyalik mashhur sotsiolog Entoni Giddens (9, 120) globallashuvni uzoq masofadagi hududlarni bir-biridan bir necha ming kilometr masofada sodir bo'ladigan hodisalarga aloqador tarzda bog'laydigan, dunyo miqyosidagi ijtimoiy munosabatlarning kuchayishini shakllantiradigan jarayondir, deya baholadi. Globallashuv atamasining ilk bor qo'llanilishi 1940-yillarga borib taqaladi, ammo 1980-yillarning oxiridan boshlab, u iqtisodiyot va ijtimoiy fanlar sohasida ommalasha boshladi. Garvard biznes maktabining professori va iqtisodchisi Teodor Levitt bu davrda ushbu atamani ommalashtirganlardan biri sifatida tanilgan. Nazariyotchilar yana shunday ma'lumotlar beradiki, 1960-yillarning oxirlaridan beri vaqti-vaqti bilan ishlatilib kelinayotgan "globallashuv" atamasi birinchi marta 1981-yilda amerikalik sotsiolog J. Malkina (13, 19) tomonidan konseptual konstruksiyalar markaziga qo'yildi. U "globallashuv tobora kengayib borayotgan ijtimoiy aloqalarni, tarixiy jarayonni tushunish va tushuntirish uchun zarur" (5, 114), deydi.

1980-yillarning o'rtalariga kelib globallashuv tushunchasining qo'llanilish ko'lami kengaydi. Bu holatni V.L.Inozemtsev shunday asoslaydi: "1980-yillarning asosiy konsepsiyasi postmodernizm bo'lganidek, 1990-yillarning asosiy g'oyasi globallashuv bo'lishi mumkin, bu bilan biz insoniyatning uchinchi ming yillikka o'tishini nazarda tutmoqdamiz" (6, 36). 1983-yilda R. Robertson maqolalaridan birining sarlavhasiga "globallashuv" tushunchasini kiritdi. Olim 1985-yilda "globallashuv" atamasiga batafsil izoh berdi va 1992-yilda maxsus konsepsiyaning asoslarini bayon qildi. Ammo hali ham aniq uslubiy asosga ega bo'lmagan globallashuv tushunchasi G'arb sotsiologiyasida g'arblashtirish, ya'ni G'arb modelining tarixiy kelib chiqqan hududlardan tashqarida tarqalishining natijasi, deb qaraldi. Ushbu jarayonning asosini zamonaviy texnologik taraqqiyotning universal xarakteri, deya baholashdi. Bu esa birlashgan ijtimoiy shakllarning kelib chiqishiga sabab bo'ldi.

Professor U. Hamdamov globallashuv tushunchasiga "lotincha "globus", ya'ni "shar" so'zidan olingan bo'lib, dunyo miqyosidagi iqtisodiy, siyosiy, madaniy, diniy jihatdan o'zaro ta'sirlashuv jarayonidir" (4, 77-78), deydi. Bizningcha, tor ma'noda olib qaralsa, globallashuv davri deb bugungi kun manzarasining yaratilishiga zamin hozirlagan yaqin o'tmish davrini ham inobatga olish zarur. Chunki bugungi jarayonlarning shakllanishida o'zidan oldingi mavjud davrlar zanjir vazifasini o'taydi. Keng ma'noda esa insoniyat tamaddunida bugunga qadar shakllanib kelayotgan rivojlanishlar, o'sishlarni ham inobatga olish lozim.

Ushbu fikrlarga asoslangan holda aytish mumkinki, globallashuv jarayoni "chegarasiz dunyo"ning boshlanishidir. U siyosat, tarix, ma'naviyat, din, adabiyot, san'at va texnikaga birday taalluqlidir. Jarayonning markazida inson turar ekan, u ham

Globallashuvning ijobiy va salbiy jihatlari

Globallashuvning ijobiy jihatlari:	Globallashuvning salbiy jihatlari:
jahondagi barcha xalqlar tinchligi uchun kurash	turli xil ekologik muammolar, ya'ni ozon qatlaminin yemirilishi, havo haroratining keskin oshib borishi, o'rmonlarning kamayishi, cho'l va sahrolarning paydo bo'lishi, Orol dengizi fojiasi va boshqalar;
dunyo mamlakatlarining iqtisod-siyosat, fan-texnika, madaniyat, ta'lim va boshqa sohalardagi hamkorliklarini amalga oshirish yo'li;	terrorizm va giyohvandlikning oshishi;
hamjihatlikda qurollanish poygasiga qarshi kurash olib borish	ommaviy madaniyat tahdidi. Aniqlik shkalda ifodalaganda, madaniyatsizlikning bir ko'rinishi bo'lib, milliy madaniyatlarning yo'qolishiga sabab bo'ladigan jarayondir;
terrorizm va giyohvandlikka qarshi kurashish;	qurol va giyohvand moddalar savdosining kengayishi va boshqalar.
yuqumli kasalliklar epidemiyalariga qarshi birgalikda kurash olib borish;	
tabiiy ofatlar, ya'ni zilzila, suv toshqinlari, yong'in, vulqon otilishi, sunami va boshqalardan zarar ko'rgan aholiga dunyo mamlakatlarining beg'araz yordamini amalga oshirish.	

boshqaruvchi, ham boshqariluvchi vazifasini o'taydi. Demak, inson bu jarayon yuzaga keltirgan yutuqlar egasi bo'lishi bilan birga uning qurboniga ham aylanishi mumkin.

“Foyda buyuk ma'buda maqomini bajarayotgan bu davrning qo'pol tarzusida san'atning ma'naviyatdagi xizmatlari tosh bosolmaydi, natijada taqdirlanishdan mahrum bo'lgan san'at sershovqin asr bozoridan chetga yitib ketadi” (16, 265–266), deganida olmon shoiri va dramaturgi F.Shiller jahonda ildamlab borayotgan “o'zaro ta'sirlashuv, bir-biridan “rang olayotgan” dunyoda kechayotgan globallashuv jarayonida insonning ma'nau sayozlashuvi, o'zligidan yiroqlashuvini nazarda tutgan bo'lsa, ajabmas.

Globallashuv jarayoni dunyoning har soniyada sergak turishini, ogohlikni talab qiladi, chunki bugungi kunda ogohlikka davr talabi darajasida qaraladi. Biror hududda sodir bo'lgan voqea-hodisa, yuzaga kelgan muammo bugunga kelib bizda ham namoyon bo'lishi, o'zining ta'sirini ko'rsatishi muqarrardir.

XX asrning oxirgi o'n yilligidan XXI asrning dastavvalida dunyo hamjamiyati o'zidan oldingi davrlarga qaraganda tub burilishlar yasadi, mavjud qatlamning barcha ijtimoiy-siyosiy va madaniy sohalar uchun ahamiyatga molik bo'lgan global innovatsiyalar yaratgani, yaratayotgani bilan ajralib turadi. Davrning yutuqlari sifatida dunyodagi har bir xalqning milliy tarixi va an'alariga, milliylikning asl manbalarini izlashga, topishga qiziqish ortib borayotganini ta'kidlash mumkin.

Mavjud madaniy voqelikni tushunish, anglab yetish, avvalo, adabiy-badiiy makonning, ya'ni adabiyotning elementar vazifasi nuqtayi nazaridan amalga oshiriladi. Chunki shu kesishuvda ikki unsur — reallik va badiiylikni bog'lab turgan munosabat anglashiladi. Adabiyotni globallashtirish har bir adibni oqim, maktabning ustuvor tamoyillarini, o'xshashliklarini va farqlarini tanishini, bilishini ham

muhim sanaydi. XXI asr zamonaviy o'zbek adabiyoti jarayoni shakllanishining bugungi bosqichida adabiy jarayonni tashqi tomondan, ya'ni butun insoniyat, dunyo tarixida sodir bo'lgan voqealar hamda ichki tomondan, o'zbek milliy adabiyotimiz taraqqiyotining ijtimoiy-tarixiy, falsafiy, g'oyaviy, adabiy-estetik, badiiy uzviyligi, davrning ta'siri, insonning ruhiy holati va ijodkorning badiiy hodisalari ijod jarayonida aks ettirishi, uning yaxlit namoyon bo'lishi nuqtayi nazaridan bir butunlikda qamrash, baholash, kuzatish lozim.

Badiiyatga asoslangan tafakkur Haqni tanishga olib keladi, oqibat xulosa esa adabiyotni jahon bozorlarida insoniylikning yo'qolishidan himoya qiladi. Endi xavotirli savol tug'iladi: globallashgan dunyoda adabiyotni qanday himoya qilish, asrab qolishimiz mumkin? Shu o'rinda Gyotening fikriga murojaat qilamiz: "She'riyat — insoniyat boyligi va u hamma joyda ming-minglab odamlarda namoyon bo'lishiga tabora ko'proq amin bo'lmoqdaman. Shu bois men boshqa millatlarda nima borligini zavq bilan kuzataman va har kimga shunday qilishni tavsiya qilaman. Milliy adabiyotning endi unchalik ahamiyati qolmadi. Endi butunjahon adabiyotiga gal keldi" (1, 35). Gyotening fikri o'rinli, ammo qaysi ma'nodaki, milliy adabiyotlar butun dunyo talablari doirasida yaratilsagina, butunjahon adabiyoti bo'la oladi. Shu holida milliylikni saqlab qola olsagina, har millatning adabiyoti yashashda davom etadi.

Adabiyotshunoslikda globallashuv jarayoni ta'sirini o'rganish, uni tahlil qilishga, olam va odam munosabatlarini muvozanatga solishga jiddiy e'tibor qaratila boshlandi. Adabiyotda globallashuv bevosita ijtimoiy-siyosiy, falsafiy-psixologik, ma'naviy-ma'rifiy hayot, ilm-fanning rivoji, eng muhimi, insonning jamiyatga, millati, dini, irqi, yashash manzilidan qat'iy nazar insonning insonga ta'siri — bularning barchasini qamradi.

Adabiyotda milliylik hodisasi mavjud bo'lib, muammoni o'rganishga zamonaviy tadqiqotchilar faol kirishganlar. Masalan, V.N.Zaxarov (10, 13) aniq adabiyotlarning milliy o'ziga xosligini, jahon badiiy jarayonidagi o'rnini o'rganishi kerak bo'lgan maxsus ilmiy fan — etnopoetikani yaratish zarurligini asoslaydi. E. A. Malkina (13, 10) milliy adabiyotlar modellarining modifikatsiyalarini o'rganar ekan, ulardagi tuzilishning o'zgarmas tipologik asoslarini, ya'ni ramziy tasvir, dunyoning milliy surati, fazoviy va vaqtinchalik xususiyatlari, tasvirlarning arxetipik ustunligini izohlaydi. I. E. Esaulov (17, 19) klassik rus adabiyotida milliy o'z-o'zini anglashni o'rganar ekan, adabiyotda milliy tafakkur, xulq-atvor va munosabat turlarining ifodasini topadi, unda xalqning milliy xarakter xususiyatlarini aks ettiradi.

Bizningcha, milliylikni asrab qolish uchun, avvalo, tilimizga va o'zligimizning tub ildizlariga murojaat qilmoq kerak. Milliy tilimizdan ayro holda milliy adabiyotimizni yaratib bo'lmaydi. Chunki adabiyot tilimizning ma'noli timsoli bo'lib, unda qadim ajdodlarimizning genetik kodi, donishmandligi aks etgan. Zamonaviy inson ongida til orqali milliylik shakllanar ekan, u o'zligidan uzoqlashmaydi. Ma'lumki, adabiyot tasavvurni kengaytiradi,

ma'naviyatni oshiradi, tarixni, o'zlikni tanitadi, insonda rahm-shafqat tuyg'ularini shakllantiradi, "voqelikning, nafaqat, ko'lamdorligini, kengligini ta'minlaydi, balki ularning tarixan aniqligi, badiiy-estetik jihatdan dalillanganligi, syujet tarmoqlariga bog'lanish — aloqadorlik dunyosining ko'p qatlamliligi, fikr, tuyg'ular oqimi, harakatlari romanni yirik epik shakl sifatida ko'rsatib, belgilab turadi" (14, 276). Adabiyot inson qalbida g'amxo'rlik, hamdardlik kabi axloqiy fazilatlarni rivojlantirish bilan birga axloqsizlik insoniyatning tanazzuli ekanligini ham ifodalaydi. Ijodkorlar tomonidan yaratilgan bugungi adabiyot namunalari endi milliy adabiyot tushunchasidan ko'ra ko'proq dunyo adabiyoti darajasiga ko'tarildi. Dunyo adabiyotining paydo bo'lishi haqidagi dastlabki fikrlarni Gyote ilgari surgan. "Jahon adabiyoti" ("Weltliteratura") atamasi aslida adabiyotga endi kirib kelgan tushuncha emas. Ushbu konsepsiya birinchi marta 1827-yilda I. V. Gyote tomonidan qo'llanilgan bo'lib, uning shogirdi Ekkerman yozib olgan nutqida ishlatilgan. Ushbu nutqda Gyote she'riyat — adabiyot bugungi insoniyatning umumiy mulki ekanligini ta'kidlab: "Hozirgi kunda milliy adabiyot so'zi ko'p narsani anglatmaydi, bizning davrimiz jahon adabiyoti asri bo'lib, har kim bu asrni tezlashtirish uchun o'z hissasini qo'shishi kerak" (3, 119), deydi. Endi global muammolarni dunyoga olib chiqa oladigan va bir osmon ostida yashayotgan insoniyat uchun asarlar yozilishi kerak.

Bugungi insonning virtual olamdagi hayot tarzini shoir Faxriyorning "Online hayot" nomli she'riga ko'chgan. She'r shunday boshlandi:

*Boyluk kerak emas bu qizga
like yig'adi ijt.tarmoqlarda.
Like sanaydi, yana like izlar
Bir-bir bukib barmoqlarini (2, 232).*

"Like" so'zi ingliz tilidan tarjima qilinganda sifat bo'lsa, "o'xshash", "bir xil, aynan", ot bo'lsa, "aynan o'xshash kishi yoki narsa", fe'l bo'lsa, "yoqtirmoq", "tuymoq", "istamoq", "xohlamoq", old ko'makchi bo'lsa, "o'xshaydigandek", "odatdagidek" kabi ma'nolarni beradi. Demak, lirik qahramonga dunyoqarashi o'zidek bo'lgan, o'ziga o'xshagan kishi "online dunyo"ga bog'lanib qolgan kishi kerak. Uning kimligi va qayerdanligining ahamiyati yo'q. She'rda lirik qahramon "like"larga shuncha tashnaki, ularni na yer, na ko'kka ishonmasdan, sandiqqa joylaydi. Agar ular orasidan "dislike"¹lar chiqib qolsa, ulardan tezroq qutilish chorasi ko'riladi. Butun dunyoni to'plab, mobil aloqaga joylaganligi va endi odamzod usiz yashay olmayotganligi juda go'zal ifodalanadi.

*Kun kelar bir "like"ni tanlar qiz,
Nikoh o'qittirar o'shanga.
To'y virtual bo'ladi so'zsiz,*

¹ dislike – yoqtirmaslik, xushko'rmaslik, yomon ko'rish.

*Biror website bo'lar go'shanga.
Urfdan chiqib ketdi gilamlar,
Like-dan bola ko'radi ayol.
Dam bu damdir — online damlar,
Omon bo'lsin virtual hayot (2, 233).*

Zamonaviy tushunchalarni she'riyatga obrazli tarzda olib kirish, tuyg'ularni yangi tushunchalar bilan ifodalashni yosh shoirlar ijodida ham ko'p aks etadi. Bu kabi bir qator shoirlarning she'rlarida butun dunyo odamini o'yantirayotgan global masalalar va uning ichida insonning o'zi ham yashayotgani, munosabatlarning sayozlashuvi, virtual olamga boy berilishi, o'z ehtiyojlaridan nariga o'tolmasdan, dunyoning qisqarishi kabi torayib borayotgan ko'ngil, ko'ngildan uzoqlashgan insonning botiniy qiyofasi aks etadi.

Yosh ijodkorlardan M.Norchayevaning “Qumaru”² to'plamiga kirgan she'rlari e'tiborimizni tortadi. Ijodkor she'rlarida obrazlar jamlanmasi, ularga yangicha yondashuv bir o'qishda she'rxon diqqatini tortadi:

*So'ng yo'llar chuvaldi
Qaytmasdan ortga,
Yomg'irsiz apredan ko'nglimda g'ulu.
Ketar choq yodbordim —
Otamga mador,
Ro'zador qirlarga
Suv ber, Tangrim, suv (7, 79).*

M. Norchayevaning “Kuzatish” nomli ushbu she'rida shoirona nigohi o'tkir ekanligi, tabiatni ijodkor qalbi bilan his qilishini ko'rish mumkin. Suvsizlikda qolgan qirlarning ro'zadorga mengzalishi, ro'zadorligi uchun Tangridan madad tilab, suv so'rashi bilan juda chiroyli tashbih yarata olgan.

“Oroldagi ayol hirgoyisi”, “Ilk Kromanyon odam va Men” kabi she'rlarida ijodkor davrning dolzarb masalalariga murojaat qiladi.

*Tanidingmi?!
Tushlaringda suv paridek suzgan edim,
To'lqin bo'lib, bandlaringni uzgan edim,
Suv chalpitib, xayolingni buzgan edim,
Tanidingmi?! (7, 69)*

Bir zamonlar to'lib-toshgan Orol dengizining mavjlari bugunga kelib, shoira e'tiroficha, tushday tuyulayotir.

*Qaytmaysanmi?!
Bo'g'zim to'la “uv-v!” keltirdim,
O'ttiz to'qqiz g'am yomg'irin tiriltirdim,
Men qoshingga uch ko'zada suv keltirdim...
Mayli, bo'ron ko'tarmasdan, ohista, jim-m-m*

² Qumaru — qadimgi turkiy tilda “yodgorlik” degan ma'noni bildiradi.

Qaytmaysanmi?! (7, 79)

Shoira bu she'rida tarixiy voqealarga ishora qiladi. 1970-1983-yillar Amudaryo yo'lida jami sig'imi 13 mlrd. m³ bo'lgan Rog'un suvombori (Tojikiston) hamda 7,8 mlrd. m³ sig'imga ega bo'lgan Tuyamo'yin suv omborlarining qurilish ishlari olib borildi. Keyin esa Qarshi cho'lining o'zlashtirilishi, Buxoro-Amu, Tuyamo'yin-Toshhovuz singari o'nlab kanallarning Amudaryo o'zanlaridan istagancha suv olishi natijasida atrof-muhitning ekologik vaziyati buzilishiga olib keldi. She'rdagi obrazlar mana shu tarixiy haqiqatga tayangan. Orol qurishiga o'ttiz to'qqiz yil "O'ttiz to'qqiz g'am yomg'irin tiriltirdim" hamda bir nechta suv omborlarning qurilishi "Men qoshingga uch ko'zada suv keltirdim" kabi satrlarda badiiy obrazlashtirish orqali aks ettirilgan.

Keyingi she'rda esa shoira mehr ko'rolmagan, samimiylik topolmagan bugunning odamidani ko'ra ibtidoiy odamning holiga havas qiladi.

*Sen ayiqni yengasan jangda,
Tabiatdan olganing halol.
O'ylamaysan, borliq qay rangda,
O'ylamay baxt topding, ehtimol.
Biz dillarni yanchib o'tyapmiz,
Yong'oq emas, chaqiladi ong.
Turmush butkul o'zgargan, faqat
Tonglar o'sha va o'shadir tong (7, 79).*

"Obraz barcha san'at turlarida faol bo'lgan samarali adabiy vositadir. Ijodkor obrazlardan o'quvchilar bilan o'zining fikrlari, yaratayotgan asari mazmun-mohiyati chuqurroq, esda qolarli darajada yetkazish vositasi sifatida foydalanadilar" (8, 170). Tasvirlar o'quvchiga yozuvchi tasvirlab berayotgan narsaning vizual tasviri va hissiy taassurotlarini, tavsifga birlashtirilgan hissiyotlarni shakllantirishga yordam beradi. Bundan tashqari, obrazlilik yozuvchining badiiy va obrazli tilda mahoratini namoyish etish vositasidir.

"Mantiqiy mushohadadan qochish, g'alatilikka, so'z ma'nolari va chuqur shakliy o'yinlarga intilish hozirgi she'riyatimiz qiyofasiga aylandi. Odatga muvofiq xulosa chiqarish zamonaviy she'rlar uchun eskilik sanalib qoldi. Modern shoirlar mavjud badiiy qoliplarga tushib qolishdan, ifodaning bir xilligidan qochmoqdalar. Bu hol turli betakror obrazlar va kutilmagan tashbihlar yaratilishiga olib kelmoqda" (11, 11), deb ta'kidlaydi M. Yo'ldosheva. Zamonaviy she'riyat uchun umumiy tendensiyalar sifatida ong oqimining tartibsiz holati, erkin she'rning ustuvorligi, ifodaning noaniqligini ko'rish mumkin. Shoir uslubida ma'no, ohang va hissiyotlarni yetkazishda foydalanadigan usulni o'z ichiga oladi. Masalan, so'zning ma'nosi va ahamiyatini she'r shaklida yetkazish mumkin bo'lsa, ritm va qofiya kabi unsurlar shoir uslubida ikkinchi o'ringa tushib borayotir. So'zlarning ma'no tashish darajasi tovush uchun ham, so'z uchun ham tanlanadi. Bugungi she'rxonni zavqlantiradigan asosiy ikki element

sifatida ma'no kuchaytirish va so'z o'yinini aytish mumkin. So'zlarning satrda joylashishi va butun she'r davomidagi satrlarning joylashishi ham shoirning uslubida katta ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. “Har bir millat adabiyoti dunyo badiiy tafakkurining ajraqlmas qismini tashkil qiladi” (15, 121). Adabiyotshunoslikda adabiy jarayonni davrlashtirish masalasi har doim muhim sanalgan. Nazariyotchilar bu haqda turlicha fikr bildirishadi. Masalan, ulardan bir guruhi adabiy jarayonni davrlashtirishda ijtimoiy-tarixiy sharoitni birinchi o'ringa qo'ysa, boshqa bir guruh vakillari mavjud adabiy hodisalarning namoyon bo'lishi hamda adabiy-estetik tafakkurdagi o'zgarishlar bilan belgilaydilar. Olim N. Rahimjonov: “...davrlashuv tushunchasi orqali insoniyatning o'tmishi, hoziri, kelajagi yoki inson umrining mazmun-mohiyati to'g'risida gap borsa-da, u eng avvalo, hayot, voqelik va inson shaxsiyati bilan aloqadorlikda namoyon bo'ladi” (12, 33), deydi. Bizningcha ham, davrlashuv tushunchasining tub mohiyatida, birinchilardan bo'lib, inson turadi. Insonning fiziologik, ruhiy hamda shaxsiy istaklari, ehtiyojlari har doim har tomondan davrlashuv bilan birlikda harakatlanadi yoki aksincha, ayni istak, ehtiyojlar zamoni, muhitni harakatga keltiradi.

Davrlashuv adabiyot bilan bog'lovchi vosita ijodkor ekan, demak, u umumbashariy voqea-jarayonlarni birinchi tashuvchisidir. Bugungi dunyo adabiy jarayonining sintezlashuvi kechayotgan bir davrda yaratilayotgan badiiy adabiyot namunalari ham tashqi (adabiy aloqalar va adabiy ta'sir), ham ichki (adabiy meros va an'analarning davomiyligi) aloqalar rivoji, ularning qorishiq holda qo'llanilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ekkermann J. P. Conversations with Goethe in the Last Years of His Life, Trans. Mahmure Hero. — Istanbul: Turkey Is Bank Cultural Publications, 2007. — 208 p.
2. Faxriyor. Izlam. — Toshkent: Akademnash, 2017. — 251 b.
3. Giyote. Hikmatlar. — Toshkent: Ma'niviyat, 2010. — 105 b.
4. Hamdamov U. Jahon adabiyoti: modernizm va postmodernizm. — Toshkent: Akademnashr, 2020. — 285 b.
5. Hamdamov U. Shuhrat (Yoki o'tmish merosini qanday baholash kerak) // Xorijiy lingvistik va lingvodidaktika. 2023-yil 15-mart. — B. 112–119.
6. Inozemtsev V.L. Globallashuv: illyuziya va haqiqat. // Erkin fikr-XXI. 2000. No 1. — B. 26–36.
7. Norchayeva M. Qumar. She'rlar va maktublar. — Toshkent: Akademnashr, 2022. — 120 b.
8. Sabirova Z. She'riyatda poetik obrazning badiiy-estetik vazifasi. // O'zbekistonda xorijiy tillar. 2022. — №1. — B. 169–179.11.
9. Гидденс Э. Ускользящий мир: как глобализация меняет нашу жизнь. — М.: Издательство “Весь мир”. — 120 с.
10. Захаров В.Н. Русская литература и христианство. // Евангельский текст в русской литературе XVIII–XX вв. —

- Петрозаводск: издательство Петрозаводск. ГУ. — Петрозаводск, 1994. Вып. 1. — 484 с.
11. Йўлдошева М. Ҳозирги ўзбек модерн шеърятининг асосий хусусиятлари: Филол. фан. ном... дисс. автореферати. — Тошкент, 2004. — 110 б.
12. Раҳимжонов Н. Янги ўзбек шеърятини. — Тошкент: Адиб нашриёти, 2012. — 210 б.
13. Малкина Э.А. Национальный мир как художественная модель в литературах народов России: Автореф. ... канд. филол. наук. — М., 2008. — 15 с.
14. Тураева Б. Жаҳон ва ўзбек адабиётшунослигида хронотоп категориясининг ўрганилиши. 2014. — Б. 271-276. https://www.researchgate.net/profile/Manzura-Abjalova/publication/363799157_Sinkretizm_-_lingvistik_hodisa_sifatida/links/632e8c6e694dbe4bf4b7f7ab/Sinkretizm-lingvistik-hodisa-sifatida.pdf#page=84
15. Халлиева Г. Шарқ ренессансининг буюк вакили — Ҳусайн Чоразмий //2022. — Б. 119–124. <http://universal-adabiyotshunoslik.tsuull.uz/index.php/conference/article/download/10/24>
16. Шиллер Ф. Собрание сочинений в 7 т., Т. 6. — М.: ГИХЛ, 1957. — 788 с.
17. Эсаулов И.Э. Национальное самосознание в русской классической литературе и его трансформации в отечественном литературоведении. // <http://transformations.russian-literature.com/nacionalnoe-samosoznanie-v-russkoj-klassicheskoyliterature-i-yego-transformacii-v-literaturovedenii>

References

1. Ekkermann J. P. *Conversations with Goethe in the Last Years of His Life*, Trans. Mahmure Hero. Istanbul: Turkey Is Bank Cultural Publications, 2007, 208 p.
2. Fahrijor. *Izlam* (Search), Toshkent: Akademnashr, 2017, 251 p.
3. Gjote. *Hikmatlar* (Proverbs), Toshkent: Manavijat, 2010, 105 p.
4. Hamdamov U. *Foreign linguistics and language didactics* 2023, No.6, pp. 112-119.
5. Hamdamov U. *Jahon adabiyoti: modernizm va postmodernizm* (World literature: modernism and postmodernism), Tashkent: Akademnashr, 2020, 285 p.
6. Inozemtsev V.L *Erkin fikr-XXI*, 2000, No 1, pp. 26-36.
7. Norchayeva M. *She'rlar va maktublar* (Poems and letters), Toshkent: Akademnashr, 2022, 120 p.
8. Sabirova Z. *Foreign languages in Uzbekistan*, 2022. No.1, pp. 169-179.
9. Giddens E. *Uskolzayushiy mir: kak globalizatsiya menyaet nashu jizn?* (Uskolzayushchi the world: what is globalization like?), Moscow: Izdatelstvo "Ves mir", 2020, 120 p.
10. Zaharov V.N. *Russkaja literatura i hristianstvo* (Russian Literature and Christianity), GU.: Petrozavodsk, 1994, 484 p.11.

11. Yoldosheva M. *Hozirgi o'zbek modern she'riyatining asosiy xususiyatlari* (The main characteristics of modern Uzbek poetry), Extended abstract of candidate's thesis, Tashkent: 2004, 110 p.
12. Rahimzhonov N. *Yangi uzbek she'rijati* (new uzbek poetry), Tashkent: Adib nashrijoti, 2012, 210 p.
13. Malkina E.A. *Natsionalnıy mir kak xudojestvennaya model v literaturax narodov Rossii* (The national world as an artistic model in the literatures of the peoples of Russia), Extended abstract of candidate's thesis, Moscow, 2008, 215 p.
14. Turayeva B. *Young scientist USA*. 2014, pp. 110-115, available at: <https://elibrary.ru/item.asp?id=29087965>
15. Hallieva G. *Leyli i Medjnun" Alishera Navoi v interpretatsii Ye. E. Bertelsa* ("Leyli i Medjnun" by Alishera Navoi and interpretation by E. E. Bertelsa), *Imagology and comparative studies*. 2018, pp. 74-81, available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/leyli-i-medzhnun-alishera-navoi-v-interpretatsii-e-e-bertelsa>.
16. Shiller F. *Sobranie sochinenij* (Collected works in 7 vols., Vol. 6), Moscow: GIHL, 1957, 788 p.
17. Esaulov I.E. *Natsionalnoe samosoznanie v russkoy klassicheskoy literature i yego transformatsii v otechestvennom literaturovedenii* (National identity in Russian classical literature and its transformation in Russian literary criticism), available at: <http://transformations.russian-literature.com/nacionalnoe-samosoznanie-v-russkoj-klassicheskoyliterature-i-yego-transformacii-v-literaturovedenii>